



“JAMIYATDA IMLI YOSHLAR MUHITINI SHAKLLANTIRILISHINING IJTIMOIY JIHATLARI”

Qodirov Abubakr Nodirxon o‘g‘li

Alfraganus University Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)

yo ‘nalishi 1 - bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Egamberdiyev Muzaffar

Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)

20muzaffar@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmli yoshlar muhitini shakllantirishning ijtimoiy jihatlari tahlil qilinadi. Yoshlarning ilmga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, innovatsion fikrlashni rag‘batlantirish va ijtimoiy faollikkni oshirish yo‘llari yoritiladi. Shuningdek, davlat siyosati, ta’lim muassasalari, OAV va oilaning roli ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ilmli yoshlar, ijtimoiy muhit, innovatsiya, ta’lim, yoshlar siyosati, ijtimoiy faollik.

Аннотация: В статье анализируются социальные аспекты формирования среды для образованной молодежи. Рассматриваются пути повышения интереса молодежи к науке, поощрения инновационного мышления и повышения социальной активности. Также анализируется роль государственной политики, образовательных учреждений, СМИ и семьи с социальной точки зрения.

Ключевые слова: Образованная молодежь, социальная среда, инновации, образование, молодежная политика, социальная активность.

Abstract: This article analyzes the social aspects of the formation of an environment for educated youth. It discusses ways to increase young people's interest in science, encourage innovative thinking, and increase social activity. It also analyzes the role of state policy, educational institutions, the media, and the family from a social perspective.

Keywords: Educated youth, social environment, innovation, education, youth policy, social activity.

KIRISH

Bugungi zamonaviy jamiyatda yoshlarning ilm-fan sohasidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Ilmli, tashabbuskor va zamonaviy texnologiyalarni egallagan yoshlar har qanday davlatning taraqqiyotida asosiy omil hisoblanadi. Shu boisdan ham, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilinayotgan har bir islohotda yoshlar masalasi alohida e’tibor markazida turibdi. Bugungi islohatlar zamirida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va yutuk kadr sifatida shakllantirish asosiy poydevor sifatida ko‘rilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilmli yoshlarni mamlakat taraqqiyotining asosiy poydevori.



sifatida ko‘rib, ularning ilm-fan, ta’lim va kasb-hunar sohalaridagi faoliyatini doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlamoqda.

Biroq, ilmli yoshlar muhitini shakllantirish nafaqat davlat siyosati, balki ijtimoiy omillar bilan ham bevosita bog‘liq.

ASOSIY QISM

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng katta demografik o‘sish sur’ati qayd etayotgan davlat hisoblanadi.

(1-rasm)

Yil	Aholi soni (mln)	Yoshlar soni (mln)	Ulushi (%)
2010	28.5	9.0	31.6%
2015	31.0	9.5	30.6%
2020	34.0	10.5	30.9%
2023	36.5	10.9	29.9%
2024	37.0	11.0	29.7%

Yuqoridagi statistik ma’lumotlarga tayanilsa, O‘zbekiston aholisining yoshlar ulushi (2024-yil oxirigacha):

- Umumi yohli soni: **37** million kishi
- 14–30 yosh oralig‘idagi yoshlar: **11** million nafarga yaqin
- Foiz hisobida: **29–30%** atrofida

Ya’ni bu deganiki, har uchinchi o‘zbekistonlik deyarli yosh hisoblanadi.

Har bir mamlakatning moziy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning barqaror rivojlanishi, muayyan yutuqlarga sazovor bo‘lishi va xalqning farovonligi, o’sha davlatda yoshlarga qaratilgan e’tibor evaziga bo‘ladi. Shunday ekan, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda barpo etilayotgan Yangi O‘zbekistonning asosiy kuchi bu – yoshlar hisoblanadi. Mamlakatning dunyo hamjamiyatidagi nufuzini belgilovchi asosiy omillardan biri ham aynan mamlakatdagi yoshlar ulushi hisoblanadi.

Ayniqsa, ilm-fan sohasida faoliyat yuritadigan, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirgan, analitik fikrlaydigan va ijtimoiy mas’uliyatni his qiladigan yoshlar – har qanday jamiyatning rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmli yoshlar muhitini yaratish ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikning assosi bo‘lib bormoqda.

Ilmli yoshlar muhiti — bu bilim olishga intiluvchi, ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqadigan va o‘z bilimini jamiyat farovonligi yo‘lida qo‘llay oladigan yoshlar guruhidir. Bu muhit



ilmiy izlanishlar, innovatsiyalar va ijtimoiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy omillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Oila, maktab, OTM va davlat siyosati. Ushbu omillarni rivojlantirish orqali bevosita ilmli yoshlar muhitini shakllantirish va muvofaqqiyatli natijani qayd etishga erishamiz.

Oilaning roli: Oila — yoshlarga birinchi ijtimoiy tarbiya beruvchi institut. Oila muhitida farzandlarda o‘qishga, izlanishga bo‘lgan motivatsiya shakllanadi.

- Ta’limga oid qadriyatlar oilada mustahkamlanadi.
- Kitobxonlikka bo‘lgan qiziqish onalik mehrida rivojlanadi.
- Aqliy salohiyat va axloqiy asoslar bolalikdanoq beriladi.

Shu bilan bir qatorda ba’zi oilalarda ilmga bo‘lgan e’tibor past, oilada mavjud ijtimoiy va iqtisodiy muammolar yetarlicha bo‘lganligi sabab tarbiya masalasi qoniqarli darajada, migratsiya ham ushbu masalaning asosiy jihatlaridan biri. Chunki ota-onas yoki oilada yoshlar uchun mas’ul shaxslarning yiroqdaligi katta bee’tiborlikni keltirib chiqaradi. Har bir muammo borki, uning yechimi ham topiladi, albatta. Masalan:

- Ota-onas yoki mas’ul shaxs doimiy tarzda bola bilan aloqa bo‘lishi kerak.
- Mahalla va qo‘snilar bola bilan do’stona muloqot o‘rnatishi kerak.
- Ota-onasi chet elda ishlayotgan bolalarga individual e’tibor berish, ular bilan maxsus suhbatlar, tarbiyaviy mashg‘ulotlar o‘tkazish kerak.

Sifatli ta’lim — ilmli yoshlar muhitining asosiy poydevoridir. Maktab va oliy o‘quv yurtlarida zamonaviy metodlar asosida ta’lim berilishi, malakali ustozlar faoliyati va innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi yoshlarning bilimga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Ayniqsa, interaktiv darslar, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari va raqamli platformalardan foydalanish — o‘quv jarayonini jonlantirib, o‘rganuvchi markaziga aylantiradi. 2024 yilda O‘zbekistonda 205 dan ortiq OTM faoliyat yuritmoqda.

Yoshlarni ilm-fanga jalb etishda oliy ta’lim va maktablarda o‘tkaziladigan ilmiy konferensiyalar, olimpiadalar, tanlovlardan katta ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar orqali:

- Yoshlarda mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi;
- Ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqish ortadi;
- Iqtidorli yoshlar aniqlanib, ularni qo‘llab-quvvatlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Shuningdek, turli grant dasturlari, iqtidorli talabalarni xorijiy ta’lim markazlariga yuborish amaliyoti yoshlarni ilmiy faoliyatga faol jalb etadi.

Maktab va oliy ta’lim muassasalari faqat bilim beradigan joy emas, balki ijtimoiy tarbiya, ma’nnaviy o’sish, kasbga yo‘naltirish, jamoaviylikni shakllantirish maydonidir. Ustoz va do’stlar davrasida o‘z o‘rmini topgan yosh o‘zining salohiyatini yanada faol namoyon eta oladi. Shu sababli ta’lim muassasalarida sog‘lom, ma’rifiy muhitni yaratish — ilmli yoshlar kamolotida muhim o‘rin tutadi.

So‘nggi yillarda yosh avlodni qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim olish, ilmiy salohiyatini yuzaga chiqarish va jamiyatda faol ishtirokini ta’minlash maqsadida qator huquqiy-me’yoriy hujjatlar va amaliy tashabbuslar joriy etildi. Bular orasida “Yoshlar siyosati





to‘g‘risida”gi qonun, “Yoshlar daftari”, “Yoshlar akademiyasi” kabi dasturlar alohida o‘rin tutadi.

1. “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonuni (2021-yil) yoshlarning huquqiy maqomini belgilaydi, ularni ta’lim, fan, bandlik, tadbirkorlik, axloqiy tarbiya kabi yo‘nalishlarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini nazarda tutadi.

Ushbu qonunning ijtimoiy jihatlari quyida bayon etiladi.

Ilmi yoshlarni aniqlash va rag‘batlantirish bo‘yicha qonuniy asos yaratiladi.

Ta’lim va ilm-fan sohasida imkoniyatlar tengligi ta’milanadi.

Davlat tomonidan yoshlarning intellektual o‘sishi uchun zarur sharoitlar kafolatlanadi.

2. “Yoshlar daftari”

Bu dastur 2019-yildan buyon yoshlarning ehtiyojlari va muammolarini aniqlash va individual yordam ko‘rsatishga qaratilgan tizimdir. Unda ishsiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo‘lgan, o‘qishdan chetda qolgan va ilmga intiluvchi yoshlar ro‘yxatga olinadi.

Ushbu tizim orqali quyidagi ijtimoiy jihatlar rivojlanadi:

Iqtidorli, lekin moddiy imkoniyatlari cheklangan yoshlar ta’lim va ilm-fan bilan shug‘ullanishi uchun imkoniyatga ega bo‘ladi.

Davlat grantlari, bepul kurslar va texnik jihozlar bilan ta’minalash orqali yoshlarning ilmga intilishi rag‘batlantiriladi.

Hududlarda ilmi yoshlar guruhlari shakllanadi va ular asosida ijtimoiy harakatchanlik ortadi.

3. “Yoshlar akademiyasi”

Yoshlar akademiyasi — iqtidorli yoshlarning ilmiy salohiyatini yuzaga chiqarish, ilmiy izlanishlarga yo‘naltirish va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan muassasa.

Ijtimoiy jihatlari:

Yosh olimlar va tadqiqotchilarni aniqlash va ularga grantlar, laboratoriya sharoitlari, mentorlik dasturlarini taqdim etadi;

Fan va texnologiya yo‘nalishlarida milliy kadrlar zaxirasini yaratadi;

Ilmiy faoliyatga keng jamoatchilik e’tiborini jalb qiladi va yoshlar orasida ilmga bo‘lgan ijtimoiy qiziqishni kuchaytiradi.

Boshqa tashabbuslar va dasturlar - “Yoshlar texnoparklari”, “Yoshlar innovatsiya markazlari” kabi platformalar orqali amaliy ilm-fan bilan shug‘ullanish imkoniyati yaratilmoqda.

Prezident maktablari, Ijod maktablari, Temurbeklar maktablari kabi elita ta’lim muassasalari iqtidorli yoshlarni tayyorlashda ijtimoiy lift sifatida xizmat qilmo qda.

Ayni vaqtida butun dunyoda internet rivojlangan. Kundan-kunga esa yangi g‘oyalar va ijodiy yondashuvlar kontent sifatida tayyorlanib odamlar ichiga kirib kelmoqda. Bunda bevosita ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar muhim rolni ijro etmoqda.



Internet orqali ilmga oid kontentlar va ilmiy suhbatlar sonini oshirish va ularni jamoatchilik ichiga olib kirish orqali ham anchagina muvofaqiyatga erishsak bo‘ladi.

Shuningdek, zamonaviy OAV platformalari orqali yosh olimlar, ixtirochilar, startap asoschilari haqida berilayotgan reportaj va intervylular nafaqat namunaviy obrazlar yaratadi, balki yoshlarni o‘z ustida ishlashga undaydi. OAVda e’lon qilinayotgan tanlovlardan, grantlar, ilmiy loyihalar haqidagi e’lonlar esa yoshlarning amaliy faoliyatga qo’shilishiga sharoit yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, davlat va nodavlat OAVlari yoshlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, xususan, ilmlı avlodni shakllantirish bo‘yicha maqsadli va tizimli yondashuvni amalga oshirishi muhimdir. Ilmiy tanlovlardan, innovatsion festivallar, “Yilning eng ilmlı yoshlari” kabi ommaviy loyihalarni yoritish orqali OAV yoshlar orasida ilmiy raqobat muhitini yaratishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa: Bugungi globallashuv jarayonida jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri – bu ilmlı, tafakkurli va zamonaviy bilimlarga ega yoshlar muhitini shakllantirishdir. Ilmlı yoshlar – bu nafaqat kelajagimizning poydevori, balki hozirgi kun taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchidir. Ularning shakllanishida esa bir qator ijtimoiy institutlar – OAV, oliy ta’lim muassasalari, davlat siyosati va oila hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ommaviy axborot vositalari orqali yoshlarning ongida ilm-fanga mehr uyg‘otish, intellektual salohiyatga ega shaxslar obrazini shakllantirish, ilmiy yangiliklarni ommalashtirish hamda sog‘lom axboriy muhit yaratish mumkin. Oliy ta’lim muassasalari esa yoshlarning chuqur va tizimli bilim olishini ta’minlaydigan, innovatsion fikrlashini rivojlantiradigan asosiy ijtimoiy makondir.

Davlat siyosati darajasida yoshlarga oid konsepsiylar, strategiyalar, stipendiyalar, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash kabi tizimli ishlar ularning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga katta zamin yaratmoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbusi bilan joriy etilgan "Yoshlar daftari", "Yoshlar akademiyasi", "Ilm-fan va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi" kabi mexanizmlar ilmga chanqoq yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Shuningdek, oila – yosh shaxsning ilk tarbiyasi va dunyoqarashining shakllanishida tayanch poydevor hisoblanadi. Ilmlı yoshlar avvalo oilada kitobxonlik, mehnatsevarlik, ma’naviyat va intilish kabi qadriyatlarni anglaydi. Shu sababli, oilaviy muhitda ilmga bo‘lgan qiziqish rag‘batlantirilishi, ota-onalar farzandining ilm olish yo‘lida doimiy dalda bo‘lishi juda muhim.

Xalqimiz orasida ilmlı yoshlar muhitini shakllantirish borasida hali rivojlantirilishi lozim bo‘lgan bir qancha yo‘nalishlar mavjud, jumladan:

- Ilmiy kontentni ko‘paytirish va uni yoshlar uchun jozibador qilish (televide niye, YouTube, TikTok, ijtimoiy tarmoqlar orqali);
- O‘rta ta’lim tizimida ilg‘or o‘quv metodikalarini joriy etish;
- Yoshlarni ilmiy izlanishlarga keng jalb qilish, ularni xalqaro olimpiadalar, grantlar, innovatsion forumlarga yo‘naltirish;



- Hududlarda (ayniqsa chekka joylarda) ilm bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- Mentorlik tizimini rivojlantirish — tajribali olimlar, mutaxassislar tomonidan yoshlar bilan bevosita ishslash;

- Yoshlarning ilmiy faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda ilmli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yo‘lida mislsiz sharoitlar yaratib berilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining soni ko‘paymoqda, yangi zamonaviy laboratoriyalar, ilmiy markazlar, kutubxonalar va inkubatsiya markazlari tashkil etilmoqda. Xorijda ta’lim olish, ilmiy tajriba almashish imkoniyatlari kengaymoqda. Har bir yoshta o‘z salohiyatini yuzaga chiqarish uchun teng va qulay imkoniyatlar yaratilgan.

Bugun biz, ayniqsa yoshlar, jamiyatning eng muhim kuchi sifatida o‘z zimmasidagi mas’uliyatni chuqur his qilgan holda ilm olishga, izlanishga, rivojlanishga intilishimiz zarur. Zero, ilmli yoshlar jamiyatni taraqqiyot sari yetaklaydi. Mamlakatimizda yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, nafaqat o‘z kelajagimiz, balki yurtimiz ravnaqi uchun xizmat qilish barchamizning sharaflı burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning bandligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. (2021).
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
3. G‘ulomov S.S. Ijtimoiy fanlar asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2020.
4. To‘xtayev B. Zamonaviy ijtimoiy jarayonlar va yoshlar. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019.
5. UNESCO. Youth and Scientific Innovation: Global Report, 2022.
6. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi.
7. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi rasmiy sayti.

